

ICHAN-QAL'A ME'MORIY ANSAMBLIDA OLLAQULIXON MADRASASINING TUTGAN O'RNI

Ovezova Faroxat Razzoqovna

*“Ichan-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi
katta ilmiy xodimi.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr Xiva xonligi davrida bunyod etilgan Ollaqulixon madrasasining qurilish tarixi, me'moriy xususiyatlari va ilmiy-ma'rifiy faoliyati yoritilgan. Unda madrasaning Ichan-Qal'a me'moriy ansamblidagi o'rni, tuzilishi hamda tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Ollaqulixon madrasasi Xiva xonligi davri me'morchiligi va madaniy merosining nodir namunasi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Ollaqulixon madrasasi, Xiva xonligi, Ichan-Qal'a, XIX asr me'morchiligi, me'moriy meros, tarixiy obida, madrasa, islomiy me'morchilik, ilmiy-ma'rifiy faoliyat, vaqf mulklari, Xiva me'morchilik maktabi, madaniy meros.

THE PLACE OF THE ALLAKULIKHAN MADRAS IN THE ARCHITECTURAL ENSEMBLE OF ICHAN-KALA.

ABSTRACT

This article discusses the construction history, architectural features, and scientific and educational activities of the Ollaqulikhan Madrasah, built during the Khiva Khanate in the 19th century. It analyzes the place, structure, and historical significance of the madrasah in the Ichan-Kala architectural ensemble. The Ollaqulikhan Madrasah is considered a rare example of the architecture and cultural heritage of the Khiva Khanate.

Keywords: Ollaqulikhan Madrasah, Khiva Khanate, Ichan-Kala, 19th century architecture, architectural heritage, historical monument, madrasah, Islamic architecture, scientific and educational activities, endowment properties, Khiva School of Architecture, cultural heritage.

Xiva shahri qadimdan Markaziy Osiyoning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, XIX asrda Xiva xonligi hududida ko'plab saroylar, masjidlar, madrasalar va savdo inshootlari bunyod etildi. Ana shunday yirik me'moriy obidalaridan biri — Ollaqulixon madrasasidir.

Ollaqulixon madrasasi Xiva xoni Olloqulixon hukmronligi davrida 1834–1835-yillarda qurilgan. Madrasa xonning bunyodkorlik faoliyati natijasida barpo etilgan bo'lib, Xiva shahrining sharqiy qismidagi Ichan-Qal'a me'moriy ansamblining tarkibiy qismiga aylangan.

Madrasaning bunyod etilishi va tarixiy sharoiti. Olloqulixon (1825–1842) Xiva xonligi tarixida faol bunyodkor hukmdorlardan biri sifatida tanilgan. Uning davrida Xivada ko‘plab yirik inshootlar qurilgan. Jumladan, Toshhovli saroyi, karvonsaroy, tim va boshqa savdo hamda diniy inshootlar bunyod etilgan.

Ollaqulixon madrasasi 1834–1835-yillarda xon buyrug‘i bilan qurilgan. Madrasa Ollaqulixon tomonidan qurdirilgan savdo inshootlari bilan bog‘liq holda joylashtirilgan bo‘lib, Ichan-Qal‘aning yaxlit me‘moriy ko‘rinishini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Madrasa qurilishida qo‘shmadrasa uslubi qo‘llangan. U Ollaqulixon timi, Xo‘jamberdibiy madrasasi va Polvon darvoza bilan yagona me‘moriy majmua hosil qiladi. Bino sun‘iy ravishda ko‘tarilgan, taxminan 3 metr balandlikdagi tepalik ustiga qurilganligi sababli atrofdagi inshootlardan balandroq ko‘rinadi.

Bosh tarzini miyon-saroy, masjid va darsxona hamda 2 qavatli hujralar egallagan. Eshikdagi yozuvda binoning qurilgan sanasi saqlangan. Hovli tomoni o‘ziga xos, undagi 2 qavatli qator hujralar Polvon darvozaning kichik gumbazlari ustiga va qisman Tim gumbazlari chekkasiga joylashgan. Masjid va darsxona tuzilishi bir xil. Usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Devorlaridagi chuqur ravoqlar hisobiga xona keng ko‘rinadi. Madrasa g‘arbida joylashgan ayvondagi yozgi masjidning mehrobi ganchli muqarnasdan «iroqi» uslubida bezatilgan.

Me‘moriy tuzilishi. Ollaqulixon madrasasi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda qurilgan bo‘lib, uning umumiy o‘lchami $62,45 \times 47$ metrni tashkil etadi. Bosh peshtoqi g‘arb tomonga qaratilgan. Madrasa ichki hovlisining o‘lchami $34,6 \times 29,4$ metr bo‘lib, hovli atrofi ikki qavatli hujralar bilan o‘ralgan.

Madrasa tarkibiga quyidagi asosiy qismlar kiradi:

bosh peshtoq;

miyonsaroy (kirish qismi);

masjid;

darsxona;

yozgi ayvon;

ikki qavatli hujralar.

Madrasada jami 99 ta hujra mavjud bo‘lgan. Hujralar talabalar yashashi va ta‘lim olishi uchun mo‘ljallangan. Har bir hujrada eshik va yuqori qismida yorug‘lik tushishi uchun tobadonlar mavjud bo‘lgan.

Masjid va darsxona bir xil tuzilishga ega bo‘lib, ularning o‘lchami $4,8 \times 4,8$ metrni tashkil qiladi. Ushbu xonalar pastak yarim aylana shaklidagi gumbazlar bilan yopilgan. Madrasa g‘arb tomonidagi ayvon esa $5,5 \times 5,5$ metr hajmda qurilgan bo‘lib, mehrobi ganchli muqarnas bezaklari bilan ishlangan.

Peshayvonida Xiva me‘morchiligiga xos bo‘lgan moviy va oq rangli mayolika koshinlar hamda murakkab naqshlar keng qo‘llanilgan.

Madrasaning ilmiy-ma'rifiy faoliyati

Ollaqulixon madrasasi XIX asrda Xivadagi yirik ta'lim maskanlaridan biri bo'lgan. Bu yerda diniy bilimlar bilan bir qatorda arab tili, adabiyot, tarix va boshqa fanlar ham o'qitilgan.

Madrasa faoliyati vaqf mulklari hisobidan ta'minlangan. Ayrim tarixiy manbalarda Ollaqulixon ushbu madrasa uchun katta miqdorda yer-mulklarni vaqf sifatida ajratgani qayd etiladi.

Madrasa qoshida kutubxona faoliyat yuritgani va talabalar undan foydalanishi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Bugungi kunda Ollaqulixon madrasasi Xivaning eng muhim tarixiy-me'moriy yodgorliklaridan biri sifatida muhofaza qilinmoqda. U Ichan-Qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi hududida joylashgan.

Ichan-Qal'a majmuasi 1990-yilda UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ollaqulixon madrasasi ushbu tarixiy majmuaning eng muhim qismlaridan biri sifatida xalqaro miqyosda qadrlanadi.

Ollaqulixon madrasasi XIX asr Xiva xonligi me'morchiligining yuksak namunalaridan biridir. 1834–1835-yillarda bunyod etilgan ushbu madrasa o'zining yirik hajmi, 99 ta hujrasi, noyob me'moriy yechimi va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. U nafaqat diniy-ta'lim maskani, balki Xiva xonligi davridagi ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik siyosatining yorqin namunasi sifatida bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ollaqulixon madrasasi”. khivamuseum.uz. 2023-yil 8-noyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 20-oktabr 2023-yil.
2. Bobojonov D, Abdurasulov M. Firdavsmonand shahar. Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti 2008.
3. Абдуллаев, М.. Қадимий Хоразм тарихи ва Хоразм давлатчилиги. Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 2019.
4. О'зМЕ. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil Апухтин О. Тасвирий санъат асослари. Тошкент, 1967.